

TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA TARBIYANING TUTGAN O'RNI

A.A.Xojametov - p.f.b.f.d (PhD)., professor v.b - O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizning ijtimoiy siyosiy hayotida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, har tomonlama voyaga yetayotgan yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish, yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasi va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish haqida aytib o'tiladi.

Kalt so'zlari: Uzluksiz ta'lim, sub'ekt, ta'lim-tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy, Vatan, Tarbiya, ijtimoiy - gumanitar, Sharqona, vatanparvarlik.

РОЛЬ ВОСПИТАНИЯ В ДАЛЬНЕЙШЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ОБРАЗОВАНИЯ

А.А. Хожаметов –

доктор философии по педагогическим наукам (PhD), и.о. профессора –
Нукусский филиал Института переподготовки и повышения
квалификации специалистов по физической культуре и спорту при
Государственной академии спорта Узбекистана.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы создания гармонии личности и общества через понимание национальной идентичности в общественно-политической жизни республики, усвоение национальных и общечеловеческих ценностей, всестороннее изучение способностей, талантов, внутренних возможностей, уникальных индивидуально-психологических особенностей молодежи в процессе ее взросления, формирование подрастающего поколения как личности и субъекта, его психическое развитие, уровень воспитанности, эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: Непрерывное образование, предмет, воспитательно-образовательный, духовно-просветительский, Родина, Образование, социально-гуманитарный, востоковедный, патриотизм.

THE ROLE OF UPBRINGING IN THE FURTHER IMPROVEMENT OF EDUCATION

A.A. Khojametov –

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Acting Professor - Nukus branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Culture and Sports under the State Sports Academy of Uzbekistan.

Annotation: This article discusses the creation of harmony between the individual and society through the understanding of national identity in the socio-political life of the Republic, the assimilation of national and universal values, the comprehensive study of the abilities, talents, internal capabilities, and unique individual-psychological characteristics of young people as they grow up, the formation of the younger generation as a person and subject, their mental development, level of upbringing, and the effectiveness of the educational process.

Keywords

Continuing education, subject, education-education, spiritual-educational, Homeland, Education, social-humanitarian, Oriental, patriotism.

Bugungi kunda Respublikamizning ijtimoiy siyosiy hayotida milliy o'zlikni anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zlashtirish orqali shaxs bilan jamiyat o'rtasida uyg'unlikni vujudga keltirish, har tomonlama voyaga yetayotgan yoshlarning qobiliyatlari, iste'dodlari, ichki imkoniyatlari, o'ziga xos individual-psixologik xususiyatlarini tadqiq etishni, shuningdek, rivojlantirishni talab etadi. Yosh avlodning shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasini aniqlamay turib ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish mumkin emas.

Mamlakatimiz oldida turgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy masalalar ta'lim va tarbiya ishini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim tizimidagi

vazifalarga zamonaviy yondashuv davlatimizning bu sohaga nihoyatda katta e'tibor berayotganida, qabul qilingan bir qator Qanun va Qanun osti hujjatlarda o'z ifodasini topdi.

Uzluksiz ta'lim tizimi malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimi inson va jamiyatning turli xil ta'limiy ehtiyojlarini qondirishi, bilimlarning qadr-qimmati va mavqeini ko'tarish uchun keng imkoniyatlar yaratib berishi, shuningdek, iqtisodiyotning o'zgaruvchan ehtiyojlari sharoitida umumta'limiy, umumma'daniy, kasbiy va ilmiy asosda mutaxassislar tayyorlash yo'li bilan fundamental bilimlar berib, shaxsni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashi kerak.

Tarbiya - arabcha so'zdan olingan bo'lib, parvarish qilmoq, ta'lim bermoq, o'rganish, odob o'rgatish, mehribonlik ko'rsatish, himoya qilish singari ma'nolarni anglatadi[2].

Tarbiya odamlarning ichki mavjud imkoniyatlarini, irsiy tug'ma qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishdir. O'qituvchining ilk vazifasi ham shunda. Ma'naviyat olamida bir yoqlama, boshqa narsalar hisobiga rivojlanib ketmasligi kerak. Ulug' mutafakkir, buyuk san'atkor bo'lib yetishish mumkin, lekin haqiqiy inson bo'lish qiyin, degan hikmatning mazmuni ham fikrimiz dalilidir.

Ta'lim tizimida ta'lim va tarbiyaning uzviy ravishda olib borilishi nafaqat mamlakatning intellektual jihatdan yuksalishiga, shuningdek ma'naviy barkamol bo'lishini ham ta'minlaydi. "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta'lim-tarbiya sohasining

asosiy maqsad va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim-tarbiya ishini uyg'un xolda olib borishni talab etadi"[3].

Globallashuvning bugungi kunda yanada keng miqyosda avj olishi sharoitida ta'lim va tarbiya uyg'unligini ta'minlash dolzarb vazifa darajasiga aylandi. Chunki, agar ta'limni tarbiyadan ajralgan xolda, ya'ni yoshlarga faqat bilim berish bilan cheklanadigan bo'lsak, ular ana shu bilimlarni egallashlari mumkin, ammo ular bugungi kun uchun o'ta muxim bo'lgan vatanparvarlik, millatparvarlik, ota-ona, mahalla oldida mas'uliyat kabi qadriyatlardan bebahra bo'lib qoladilar. Bunday xolatning yuzaga kelishi esa istiqbolda mamlakat taraqqiyoti va shaxs kamoloti uchun salbiy zaminlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Tarbiya bilan ta'limni uzviy ravishda olib borishda ta'lim tizimida o'qitilayotgan ijtimoiy - gumanitar fanlarning o'rni nixoyatda kattadir. Chunki ana shu fanlar dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda yetakchilik qiladi. Ular o'qituvchi, talaba va butun ta'lim tizimidagi yoshlar nafaqat ongi, tafakkurini rivojlantiradi, shuning bilan birga ularning ma'naviyatini ham boyitadi. Vatan va millat taqdiri, uning istiqboli uchun mas'ullik tuyg'usini shakllantirib boradi. «har qaysi davlat har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish saloxiyati bilan, balki birinchi navbatda o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir»[4].

Yuqoridagilarni nazarda tutib, yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda ta'lim tizimining o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tish kerak. Chunki ta'lim tizimida ong va tafakkurning rivojlanish jarayoni kechadi va ular o'z navbatida yoshlarga bilim egallash bilan birga, vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik kabi qadriyatlarni o'zlashtirishiga yaqindan yordam beradi. Shuning uchun ham ta'lim bilan tarbiya uyg'un xolatda yoshlarning ma'rifat va ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omili sifatida har doim katta ahamiyatga ega bo'lib keladi.

Insonni tarbiyalash, uni rivojlantirishning aniq qonuniyatlarini ishlab chiqish pedagogika fani zimmasiga tushadi. Pedagogikaning predmeti shaxsni

rivojlantirish bilan tarbiya o'rtasidagi qonuniyatni aniqlash va shu asosda tarbiyaviy faoliyatning nazariy hamda uslubiy asoslarini ishlab chiqishdir.

Avlod-ajdodlarimiz juda qadim zamonlardan boshlab tarbiya masalasida har doim umumbashariy his-tuyg'ular, milliy qadriyatlarni birinchi o'ringa qo'yib kelganlar. Sharqona ta'lim-tarbiya masalalari har vaqt Markaziy Osiyo hayotida kechgan ma'daniy tarixiy jarayonning, axloqiy estetik tarbiyaning markazida turgan. Sharq mutafakkirlari asarlarida barkamol inson shaxsi, uning ta'limi va tarbiyasi masalalari Movarounnaxrning o'rta asr davri buyuk mutafakkirlari, ilm-fan allomalari asarlarida shaxs kamoloti masalalarini har tomonlama asoslab berilganligi xam buni to'liq isbot qiladi.

Umuman Sharq xalqlari qadimgi go'zal axloqiylikni jamiyat taraqqiyotining va insoniy munosabatlar rivojining mezonini deb bilganlar. Odamlarda chinakam insoniy-ahloqiy fazilatlarni shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotning ongliligiga erishish mumkin deb hisoblaganlar. Masalan, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino «Hayo - insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi» desa, ulug' mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy insonning ichki va tashqi go'zalligi to'g'risida fikr yuritib shunday deydi: «Tashqi go'zallik, qiyofadagi jamol, bular ikkovi ham yoqimli bo'lishi kerak, odamlar o'zaro uchrashganlarida ushbu go'zal jamolni ko'rishga rag'bat qiladilar»[5].

Tarbiya masalasiga kompleks yondashish talab etiladi. Gap yaxlit ma'naviy-ma'rifiy tarbiya xususida boryapti. Chunki, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisod sharoitida, fuqarolik jamiyati qurish davrida yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, u ayni vaqtda barchamizdan katta mas'uliyat va mehnat talab qiladi[4].

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, xis-tuyg'ulari rivojlanadi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki

ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongigina emas, balki, his tuyg'ularini ham o'stira borish. Unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan ahloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga ta'lim jarayoni asosida hissiyotiga va irodasiga sistemali va muntazam ta'sir etib boriladi. O'quvchini tarbiyalashda bularning birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkab jarayon deb yuritiladi[5].

Tarbiya jarayonining xususiyatlari: ko'p qirralilik, uzoq muddatlilik, uyushtiruvchi, uzluksizlik, ikki tomonlama aloqadorlik va qarama-qarshilikdir. Tarbiya jarayoni, odatda, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar bisotida donishmandlarning pand nasihatlarini, o'gitlari va tarbiya haqidagi fikrlari alohida o'rin egallaydi. Donishmandlarning pand-nasihatlarini umrboqiy ma'naviy boylik hisoblanadi. Chunki ular hayotdan, hayot tajribalaridan kelib chiqqan va ezgu orzu niyatni ifodalaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, eng qadimgi tarbiya haqidagi fikrlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Bu fikrlar insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyatning yillar davomida rivojlanishi natijasidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Tarbiya jarayoni samaradorligi maqsad va manfaatlarning, uslub va yo'nalishlarning uyg'unligiga, amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning doimiyligi va ketma-ketligiga ham bog'liqdir. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari, omillari, vazifalari, usul va shakllarini nazariy rivojlantirish, uning tajriba natijalarini umumlashtirish bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Erishiladigan muvaffaqiyatlar faqat o'tkazilgan tadbirlar ko'lami, yoxud unda ishtirok etgan odamlar soni, salmog'i bilan o'lchanmaydi, balki, ta'lim-tarbiya jarayonining doimiyligi, uzluksizligi, muntazamligi bilan baholanadi. Bu esa yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ularning faolligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva. “Pedagogika nazariyasi” darslik. “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2008 y. 14-b.
2. Umumiy pedagogika . -T .: “ Fan va texnologiya”, 2018y. 224-b.
3. I.Karimov. «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» T; «Ma’naviyat», 2008y, 55-b.
4. «Barkamol avlod orzusi»- T; «Shark», 1999y, 10-b.
5. M.Imomnazarov, M.Eshmuhammedova “Milliy ma’naviyatimiz asoslari”. - T; Toshkent Islom Universiteti, 2001y, 37-b.